

AGROTURIZM – HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL SIFATIDA (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Abdullayeva Hamidaxon Rustamjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
kodirovaxamida@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170594>

***Annotatsiya:** Hozirgi kunda Agroturizm - qishloq xo‘jaligi va turizm tarmog‘ini o‘zaro uyg‘unlashtirib, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ekologik muhitni muhofaza qilishga xizmat qilish va mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beruvchi turizm tarmog‘i sifatida rivojlanib kelmoqda. Ushbu tezisda Farg‘ona viloyatida Agroturizm sohasini rivojlantirish orqali viloyat hududini barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkoniyatlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Agroturizm, balneologik, infraturizma, ekoturizm, gastronomik turizm.*

Kirish. Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizmning uyg‘unlashuvi natijasida hosil bo‘lib, qishloq joylarda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ekologik toza mahsulotlarni targ‘ib qilish imkoniyatini beradi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO, 2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, agroturizm jahon turizm sanoatining 10 foizini tashkil qiladi va so‘nggi 5 yilda 20% ga o‘sish kuzatilgan [5].

Jahon turizm industriyasining jadal rivojlanib borayotgan segmentlaridan biri bo‘lgan qishloq turizmiga iste‘molchilar ehtiyojning yuqoriligini, turistik biznesning eng mashhur sohalaridan biri ekanligini quyidagi sabablar izohlaydi:

- moliyaviy – eng arzon turizm turlaridan biri hisoblanadi;
- iqtisodiy – asosan qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanadigan keng qishloq joylarini jahon iqtisodiyotiga jadal jalb qilish imkoniyati;
- ijtimoiy – o‘n millionlab ish o‘rinlarini yaratish, mintaqaviy va mahalliy darajada mehnat resurslarini mustahkam band qilish;
- infraturizmaviy – qishloq joylarini ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infraturizmasining global va mintaqaviy tarmoqlariga jalb qilish;
- ekologik – agrar sektorda atrof-muhitga bo‘lgan texnogen ta‘sir o‘ta shaharlashgan hududlarning o‘xshash ko‘rsatkichlaridan bir necha barobar pastdir;
- estetik – nisbatan ibtidoiy tabiiy qishloq xo‘jaligi manzaralari, ularning jozibador o‘ziga xos jihatlari bizning "ruhiy va ma‘naviy kuch-quvvat manbaimiz" uchun ajoyib imkoniyatdir;
- balneologik – ushbu turdagi landshaftlar o‘zining ekologik toza tarkibi tufayli potentsial iste‘molchilar uchun sog‘lomlashtirish va davolash funksiyalarni bajaradi;


“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

□ innovatsion – qishloq joylarida bir-biriga o‘xshamagan, mavjud tabiiy resurslar asosida yangi turistik mahsulotlarni yaratish va taklif etish.

Asosiy qism. Agroturizmning qishloq joylarining barqaror rivojlanishidagi ahamiyati — bu soha qishloq hududlarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini barqaror ravishda rivojlantirishga muhim hissa qo‘shadi. Agroturizmni rivojlantirish, qishloq joylarining iqtisodiy holatini yaxshilash, mahalliy resurslarni samarali ishlatish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda katta ro‘l o‘ynaydi (1-chizma).


1-chizma



Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligi sohasida katta salohiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, viloyatda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 2022-yilda 26,4 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu mamlakat bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Hududda 300 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yer mavjud bo‘lib, shundan 150 ming gektardan ortig‘ida bog‘dorchilik va uzumchilik rivojlangan [8].

2-chizma

Farg‘ona viloyatida bog‘lar egallagan maydonlarning tumanlar bo‘yicha taqsimoti



Davlat kadastr Farg‘ona viloyati boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqorida berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda, quyidagi xulosa va takliflarni taqdim etishimiz mumkin:

Eng katta bog‘ maydonlariga ega hududlar: Quvasoy sh, Farg‘ona tumani, O‘zbekiston tumani, Quva tumani. Bu hududlarda bog‘dorchilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, agroturizm markazlari, bog‘ sayohatlari va festivallar tashkil qilish maqsadga muvofiq. 2023 va joriy yillarda O‘zbekiston tumanida o‘tkazilib kelinayotgan “O‘rik gullaganda” yoshlar ijodiyot festivali nafaqat mahalliy aholini balki viloyatdagi xorijliklarni xam o‘ziga jalb etib kelmoqda. Xizmat ko‘rsatish, transport infratuzilmasi, marketing va branding sohalarini yanada rivojlantirish orqali ushbu festivalga keyingi yillarda xorijlik turistlar oqimini xam keng jalb qilish maqsad qilingan [7].

Eng kichik bog‘ maydonlariga ega hududlar: Qo‘qon sh , Marg‘ilon sh , Furqat tumani. Ushbu shaharlarda bog‘ maydonlari kam bo‘lsada, hunarmandchilik, tarixiy turizm, ekoturizm va gastronomik turizm yo‘nalishlarini agroturizm bilan bog‘lab

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Agro-ekoturizm, Agro-gastronomik turizm yo‘nalishlarida turistik marshrutlarni tashkillash va rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa. Farg‘ona viloyatida agroturizm orqali viloyatning barqaror rivojlanishni ta‘minlash iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Agroturizm qishloq xo‘jaligi bilan turizmni birlashtirib, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, bandlikning oshishiga va hududiy barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi. Ushbu sohani tizimli rivojlantirish orqali Farg‘ona viloyatini mamlakatdagi yetakchi agroturizm markazlaridan biriga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug‘aniyev O.I, Abdullayeva H.R. Farg'ona vodiysida agroturizmni rivojlantirish istiqbollari. Farg‘ona, 2022. 132 bet.
2. Polukhina A N 2016 Rural Tourism as an innovative approach to the modernization of the regional economy Actual problems of economics, sociology and law.
3. Zdorov A.B. Agroturistsky complex: formirovanie i razvitie. - M.: Logos, 2011. - 269 p.
4. Wheeler B. Book Review. Tourism and Sustainability: Development and New tourism in the Third World / B.Wheeler // Annals of Tourism Research.
5. <https://www.unwto.org/>
6. <https://www.uzbektourism.uz>
7. <https://www.ferganatourism.uz>
8. <https://www.stat.uz>